

SURUNKALI ALKOGOL INTOKSIKATSIYASIDA POSTNATAL ONTOGENEZ DAVRIDA SICHQONLAR ME'DASINING QIYOSIY MORFOLOGIK VA MORFOMETRIK KO'RSATKICHLARI

Rajabboyeva Shahlo

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Biologiya talim yonalishi 2-Kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda alkogolizm rasman, odamning jismoniy va ruhiy holatini o'zgartiradigan kasallik deb tan olingan, alkogolni ko'p iste'mol qilish esa, organizmning aksariyat a'zolari va tizimlarining, xususan me'daning vazifalarini bajarishida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Surunkali alkogolizmning visseral alomatlari orasida ovqat xazm qilish trakti, jigar va yurak-tomir zararlanishlari ustuvor bo'ladi. Surunkali alkogolizm rivojlanadigan me'dadagi patologik o'zgarishlar alkogolning bevosita va bilaosita ta'sirlari bilan bog'langan bo'ladi. "Alkogol – ruhiy-faol modda bo'lib, tobelikni keltirib chiqaradi, kanserogen ta'sir ko'rsatib, butun dunyo aholisining salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi". Shu munosabatdan, surunkali alkogolizm tajriba sharoitida me'daning strukturaviy va funksional holatini o'rganish dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.

Kalit so'z: Kalamush oshqozoni, Alkagol mahsuloti, kubsimon epiteliy, silindirsimon epiteliy, sumkasimon organ.

Аннотация: В настоящее время алкоголизм официально признан болезнью, изменяющей физическое и психическое состояние человека, а злоупотребление алкоголем отрицательно сказывается на функционировании большинства органов и систем организма, в том числе и желудка. Среди висцеральных проявлений хронического алкоголизма преобладают поражения пищеварительного тракта, печени, и сердечнососудистой системы. Патологические изменения, развивающиеся в желудке при хроническом алкоголизме, связывают с прямым и косвенным воздействием алкоголя. «Алкоголь - это психоактивное вещество, вызывающее зависимость, которое является для человека канцерогеном из группы I и оказывает значительное влияние на здоровье населения во всем мире». В связи с этим изучение структурного и функционального состояния желудка при хроническом алкоголизме в эксперименте остается востребованным.

Ключевое слово: желудок крысы, алкогольная продукция, кубовидный эпителий, цилиндрический эпителий, мешковидный орган

Kirish

“Surunkali alkohol intoksikatsiyasida postnatal ontogenez davrida sichqonlar me’dasining qiyosiy morfologik va morfometrik ko’rsatkichlari” uchinchisi bobi tajribaviy tadqiqotlar bo’yicha olingan natijalarning tahliliga bag’ishlangan.

30 kunlik alkohol zaharlanishida 3 oylik yoshdagi oq zotsiz sichqonlarda bezsiz bo’limining epitelial qoplamasi balandligi kattalashadi va o’rtacha $68,5 \pm 1,0$ mkm ni tashkil qiladi, 12 oylik yoshga kelib, $77,9 \pm 1,3$ mkm ga to’g’ri kelgan. Ko’p qatlamli shoxlangan epitelii. Bezli bo’limida sichqonlarning bu yoshida epitelial qoplamaning bir qavatli tekis epiteliysi kattalashgan va o’rta $36,9 \pm 1,3$ mkm, 12 oylik yoshda esa $38,4 \pm 0,3$ mkm ga to’g’ri kelgan. Shilliq osti asosda bo’ylama mushak qatlamida arteriola va kapillyarlar joylashadi va qonning shaklli elementlari bilan to’lgan veronallar bilan davom etadi.


O’tkazilgan tadqiqotlar ko’rsatishicha, etanol bilan 30 kun davomida ta’sirlantirilgan 3 oylik hayvonlarda nazorat guruhiga nisbatan me’da bezsiz bo’limi epitelial qoplamasi 21% kattalashgan. Bezli bo’limida nazorat guruhiga nisbatan 19% ga kattalashgani ma’lum bo’lgan. 12 oylik yoshida bezsiz va bezli bo’limdagi epitelial qoplamaning balandligi 19% ga kattalashgan.

Mavzuga Oid Adabiyotlar Tahlili va Tadqiqotlar Metodologiyasi


Xususan, 6 oylik sichqonlarga nisbatan mukotsitlarda apoptoz jarayonining faol rivojlanishi, shilliq qavat yuzasida shilliq-bikarbonant himoya ishlab chiqaradigan kompensatsiyalovchi parietal hujayralarining giperfunksiyasi gidropik buzilish ko’rinishida namoyon bo’ladi, natijada parietal hujayralarning shakllanishi aniqlanadi va holat turli shakllarning kichrayishi va gipertrofiyasida namoyon bo’ladi. Shu bilan birga, parietal hujayralarning bazal plazmolemmasi sohasida granularlarning ko’pligi giperfunktional holatda shuni ko’rsatdiki, alkohol ta’sirida zararsizlantirilgan shilliq qavat bikarbonat shilliq mahsulini qayta ishlaydi.

Parietal hujayralarning bazal shohi granulari gidropik buzilishi va me’da shilliq qavatida o’choqli nekroz o’choqlarining hosil bo’lishini tushuntiradi. Natijada fundal bezlar shakli bo’yicha deformatsiyalanadi, bu esa kapillyarlarda sladja xodisasini rivojlanishi, gipoksiya rivojlanishi, fundal bezlar atrofida biriktiruvchi to’qimali tolali tuuzilmalar paydo bo’lishiga olib keladi. Shu bilan birga, fundal bezlar atrofida ko’psonli tarqoq intraepitelial limfotsitlarning bezlarni apikal shohlariga ko’chib yurishi bez tuzilmalarida surunkali yuzaki yallig’lanish jarayonlarini rivojlanishi va shilliq bezlar tuzilmalarining kichrayishiga olib boradi.


Muhokama va natijalar




1 rasm. I-guruhga mansub 12 oylik oq zotsiz sichqonini me'da pilorik sfinkteridagi shilliq osti qatlami mikrotomirlari (1. Shilliq qavatning shaxsiy plastinkasi. 2. Shilliq qavatning mushak plastinkasi. 3. Shilliq osti asosning mikrotomirlari qonning shaklli elementlari bilan to'lgan. 4. Shilliq qavatning asosiy hujayralari. Gematoksilin-eozin bilan bo'yalishi)




2 rasm. I guruh 3 oylik sichqonlarni me'dasining shilliq qavatidagi shaxsiy plastinkasi (1. Me'da chuqurchalari. 2. Me'da maydonlari. 3. Me'da bo'yin hujayralari. 4. Qonning shaklli elementlari bilan to'lgan mikrotomirlar. 5. Parietal hujayralar. 6. Asosiy hujayralar. Gematoksilin-eozin bilan bo'yalgan)




3 rasm. II guruh 9 oylik sichqonlarni me'dasi devorini shilliq qavat tuzilishi (1. Mushak tashqi qobig'i tomirlari. 2. shilliq qavat shaxsiy plastinkasi. 3. Shilliq qavat mushak plastinkasi. 4. Shilli qavatning asosiy hujayralari. 5. Me'da chuqurchalari Gematoksilin-eozin bilan bo'yalishi




4 rasm. II guruh 9 oylik sichqonlarni me'dasi devorini mikrotomirlari tuzilishi (1. Shilliq qavatni shaxsiy plastinkasi. 2. Shilliq qavat mushak plastinkasi. 3. Shilliq osti asosining mikrotomirlari qonning shaklli elementlari bilan to'lgan. 4. Shilliq qavatning asosiy hujayralari. Gematoksilin-eozin bilan bo'yalgan




5 rasm. II guruh 6 oylik sichqonlarni me'dasini mushakli va tashqi qobiqlari tomirlari (1. Qonni shaklli elementlari bilan to'lgan mikrotomirlar. 2. Shilli qavatning asosiy hujayralari. 3. Parietal hujayralar. Gematoksilin-eozin bilan bo'yalishi)



6 rasm. 6 oylik sichqonlarda me'da shilliq qavati yuzasi sohasidafundal bez chegaralarigacha mukotsitlar yuqori apoptozi ko'rinmoqda (1), BCL2 markerining o'rtacha ekspressiyasi (2). (Dab (diaminobenzidin) xromogeni bilan bo'yalishi)



7 rasm. 6 oylik sichqonlarda me'da shilliq qavatini (1) yuzaki maydonlarida qon tomirlari atrofida CD68 markerining o'rtacha ekspressiyasi. Tilla-sariq rang bilan fundal bez atrofidagi tomirlardan tolachalarning interstitsial bo'shliqqa ko'chgan makrofaglar va monotsitlar aniqlanadi. (Dab (diaminobenzidin) xromogeni bilan bo'yalishi)



8 rasm. 9 oylik sichqonlarda me'da shilliq qavatining yuzasida bir qatlamli prizmatik epiteliyning apoptozi va nekrozi aniqlangan. BCL2 markerining yuqori ekspressiyasi (1). (Dab (diaminobenzidin) xromogeni bilan bo'yalishi)

Xulosa

1.30 kunlik surunkali alkogol intoksikatsiyasida 3 oylik laboratoriya hayvonlarida me'daning bezsiz bo'limidagi epitelial qoplama balandligi 21%, bezli bo'limida 19%ga kattalashgani ma'lum bo'ldi, 12 oylik yoshda esa ikkala sohada kattalashish 19%ga teng bo'lgan. Bundan tashqari, shilliq qavatning shaxsiy plastinkasi bezsiz bo'limida 16%ga, bezli bo'limida 14%ga kattalashgan, 12 oylik davrga kelib, bu ko'rsatkichlar 14% va 13%ni tashkil qildi, hamda shilliq qavatning mushak plastinkasi bo'yicha kattalashish 17% va 20%ni tashkil qilgan, 12 oylik yoshga kelib, bu ko'rsatkichlar 18% va 24%ga teng bo'ldi. Xuddi shu kabi ishonchli o'zgarishlar laboratoriya hayvonlarining me'dasi shilliq qavatning umumiy qalinligi,

sirkulyar-mushak qobiq, bo'ylama-mushak qobig'i va mushak-tashqi qobig'ida ham kuzatildi.

2.120 kunlik surunkali alkogol intoksikatsiyada 6 oylik oq zotsiz sichqonlarni me'dasi shilliq qavatini epitelial qoplamalari balandligi bezsiz bo'limida 17%ga kichraygan. Shuningdek, 6 oylik sichqonlarda shilliq qavat shaxsiy plastinkasi 18% va 16%ga kichraygan, 12 oylik davrga kelib, 16% va 14%ga kichraygan. Shilliq qavatning umumiy qalinligi, sirkulyar-mushak qobiq, bo'ylama-mushak qobiq va me'da devorini umumiy qalinligi bo'yicha xuddi shunday natijalar olingan. 30 va 120 kunlik surunkali alkogol intoksikatsiyada salbiy o'zgarishlar o'zaro teskari proporsional bo'ldi, hamda o'zgarishlarning intensivligi 120 kunlik intoksikatsiyada ko'proq bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ziyodullaev M.M., Ilyasov A.S. Alkogoldan zaharlanishda yurakdagi morfologik o'zgarishlar va bu o'zgarishlarni korreksiyalashning yangi usuli // *O'zbekiston tibbiyot jurnali*. – Toshkent, 2023. – 39-43 b. (14.00.00; № 08).
2. Ilyasov A.S., Ziyodullayev M.M. Kalamushlarning kechki postnatal rivojlanish davrida yurak chap qorinchasi devorining mikroskopik tuzulishi. // *Doktor axborotnomasi*. Samarqand, 2023. – 40-42 b. (14.00.00; №.20.)
3. Ziyodullaev M.M. Dinamika rosta i razvitiya serdsa v period postnatalnogo razvitiya organizma // *Tibbiyotda yangi kun*. – Buxoro, 2022. – N 11(49). – P.106-111(14.00.00; №.22)
4. Ilyasov A.S., Ziyodullayev M.M. Alkogoldan zaharalnish natijasida yurakning makroanatomik o'zgarishlari. // *ASSOTSIATSII PULMONOLOGOV sENTRALNOY AZII*. Toshkent, 2023. – 145-148 b. (14.00.00; № 25.)